



KESH COINS OF THE TIMURID PERIOD FROM THE “YANGI SANGANAK” HOARD DISCOVERED IN PARKENT

Dilmurod Normurodov

Senior Research Fellow

at the State Museum of the History of the Timurids

Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

E-mail: d.r.normurodov@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

Tair Gyul

Senior lecturer NUUZ

E-mail: gyultair@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samarkand, Bukhara, Hisar, Kesh, “Yangi Sanganak”, Timurids, Shaybanids, Hijri, treasury, coin, minting (coinage), emission.

Received: 11.04.26

Accepted: 12.04.26

Published: 13.04.26

Abstract: The article presents a description and analysis of eight copper coins minted in Kesh during the Timurid period, identified as part of a hoard discovered in 2021 in the Yangi Sanganak mahalla of Parkent district, Tashkent region. The hoard is currently preserved in the State Museum of the History of the Timurids of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The described coins are divided into two types. On the obverse of both types, an Arabic inscription reads “zarb Kesh” (“struck in Kesh”). On the reverse of Type I coins, the legend “adl shirmard” appears, serving as a guarantee of the authenticity of the monetary unit and emphasizing the power of the ruler. On Type II coins, the year of minting is written out in words in Hijri dating as “nine hundred and one”. The obverse and reverse of both types are decorated along the circumference with a dotted ornament, a border line, and a stylized vegetal motif in the form of a leafy branch. It has been recorded that some of the coins bear two types of countermarks. These countermarks were applied during the Shaybanid period in order to compensate for the shortage of currency in commercial

circulation by reusing Timurid coins. These finds also serve as evidence that Kesh coins were in circulation within the territory of the Tashkent oasis during the specified period.

PARKENTDAN TOPILGAN “YANGI SANGANIK” XAZINASIDAGI TEMURIYLAR DAVRIGA OID KESH TANGALARI

Dilmurod Normurodov

O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi

Katta ilmiy xodimi,

E-mail: d.r.normurodov@gmail.com

Tashkent, O‘zbekistan

Tair Gyul

O‘zMU Katta oq‘ituvchi

E-mail: gyultair@gmail.com

Tashkent, O‘zbekistan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Samarqand, Buxoro, Hisor, Kesh, “Yangi Sanganak”, temuriylar, shayboniylar, hijriy, tanga, zarb qilish, qayta zarb.

Annotatsiya: Maqolada 2021-yilda Toshkent viloyati Parkent tumani Yangi Sanganak mahallasida aniqlangan xazina tarkibidagi Temuriylar davrida Keshda zarb qilingan 8 ta mis tanga tavsifi va tahlili keltirilgan. Hozirda xazina O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanmoqda. Tavsif etilgan tangalar ikki turga bo‘lingan. Har ikkala turdagi tangalarning old tomonida arab yozuvida “zarb Kesh” (“Kesh [shahri] zarbi”) degan yozuv tushirilgan. 1-tur tangalarning orqa tomonida “adl shirmard” degan so‘z mavjud bo‘lib, u mazkur to‘lov vositasining haqiqiylikini kafolatlaydi hamda hukmdor qudratini ifodalaydi. 2-tur tangalarda esa zarb qilingan yil hijriy hisobda so‘z bilan — “to‘qqiz yuz birinchi” tarzida ko‘rsatilgan. Har ikki tur tangalarning old va orqa tomonlari aylanasi bo‘ylab nuqtachalar, halqa hamda bargli novda ko‘rinishidagi o‘simliksimon naqsh bilan bezatilgan. Tangalar orasida ikki xil turdagi qayta zarblar borligi ham qayd etilgan. Ushbu qayta zarblar shayboniylar davrida savdo muomalasida pul yetishmovchiligini ta‘minlash maqsadida, temuriy tangalardan qayta foydalanish uchun tushirilgan. Shuningdek, mazkur topilmalar ko‘rsatilgan davrda Kesh tangalari Toshkent vohasi hududida muomalada bo‘lganini ham tasdiqlaydi.

КЕШСКИЕ МОНЕТЫ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ ИЗ «ЯНГИ САНГАНАКСКОГО» КЛАДА, НАЙДЕННОГО В ПАРКЕНТЕ

Дилмурод Нормуродов

Старший научный сотрудник

Государственный музей истории Темуридов

Академии наук Республики Узбекистан

E-mail: d.r.normurodov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Таир Гюль

Старший преподаватель НУУз

E-mail: gyultair@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Самарканд, Бухара, Гисар, Кеш, Янги Санганак, Темуриды, Шейбаниды, хиджра, монеты, чеканка, эмиссия.

Аннотация: В статье даётся описание и анализ 8 медных монет, отчеканенных в Кеше в эпоху Темуридов, выявленных в составе клада, обнаруженного в 2021 г. в махалле Янги Сангинак Паркентского района Ташкентской области. На сегодня клад хранится в Государственном музее истории Темуридов АН РУз. Описываемые монеты делятся на два типа. На лицевой стороне монет обоих типов арабской вязью помещена надпись «зарб Кеш» («чекан [города] Кеша»). На оборотной стороне монет 1-го типа содержится легенда «адл ширмард», являющаяся гарантией подлинности данного платёжного средства и указывающая на могущество правителя. На монетах 2-го типа арабскими буквами прописью указан год чеканки по хиджре – «девятьсот первый». Лицевая и оборотная стороны монет обоих типов украшены по кругу точечным орнаментом, ободком и стилизованным растительным узором в виде ветви с листьями. Зафиксировано, что на части монет имеются надчеканы двух типов. Эти надчеканы были нанесены в шейбанидский период с целью восполнения нехватки денежной массы в торговом обороте, за счёт использования темуридских монет. Также, эти находки служат свидетельством того, что кешские монеты находились в обращении на территории Ташкентского оазиса в указанный период.

Kirish. Tangalar xazinalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular muayyan davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi. Xazina tarkibidagi tangalar hukmdorlar almashinuvi, davlat chegaralarining o'zgarishi, iqtisodiy islohotlar va pul muomalasi tizimi haqida aniq xronologik ma'lumot beradi. Ayniqsa, tangadagi zarb joyi, sana va hukmdor nomi kabi epigrafik ma'lumotlar orqali muayyan hududning qaysi siyosiy markazga bo'ysungani yoki qaysi davrda mustaqil zarbxonaga ega bo'lganini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, tangalar metall tarkibi va og'irlik me'yorlari orqali iqtisodiy barqarorlik, savdo aloqalarining ko'lami hamda tashqi bozor bilan munosabatlar haqida tasavvur beradi. Masalan, turli zarbxonalar tangalarining bir xazinada uchrashi hududlararo savdo va pul aylanmasining faolligini ko'rsatadi. Tangalardagi ramzlar, unvonlar va diniy belgilar esa jamiyatning mafkuraviy yo'nalishi, rasmiy ideologiyasi va madaniy an'analari haqida qimmatli ma'lumot beradi. Shu jihatdan, 2021-yil Toshkent viloyati Parkent tumani "Yangi Sanganak" mahallasidan issiqxona tashkil qilish uchun yer qazish ishlari paytida topilgan va hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan mis tangalar xazinasida orasidagi temuriylar davrida Keshda zarb qilingan tangalar mavjudligi e'tiborga molikdir.

Kesh XV–XVI asrlarda Qashqadaryoning sharqiy hududlari – Zarafshon tizmasi va G'uzordaryo oralig'idagi yirik viloyati va shahar bo'lib, u Shahrisabz nomi bilan amalda parallel qo'llanilgan. Kesh taniqli sarkarda va davlat arbobi Amir Temur (1336–1405) ning tug'ilgan joyidir. Hozirgi Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabz shahri Keshning markazi bo'lgan Temuriylar davrdagi dastlabki tangalarda – Shahrisabz, keyinroq esa – Kesh nomi tushirilgan (Давидович У.А., 1983. – С. 24). Keshda I asrlardan tanga-pullar muomalada bo'lgan, arab xalifaligi, somoniylar, qoraxoniylar, chingiziylar, Amir Temur va temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar va Buxoro amirligi davrida bu joyda tangalar zarb qilingan (Настич В.Н., 2013. – С. 185–200).

"Yangi Sanganak" xazinasidagi Kesh tangalari temuriylar davlatidagi hududiy-hokimlik tuzilmalar, ularning savdo-iqtisodiy aloqalari va pul muomalasi taraqqiyotini o'rganishda muhimdir. Temuriylar davriga oid Kesh tangalari o'ziga xos tasvirlari, yozuvlari va yasalishi bilan ajralib turadi. Ularning tadqiqi nafaqat tangashunoslik jihatdan, balki siyosiy va madaniy jarayonlarni yoritishda ham katta ahamiyatga ega. "Yangi Sanganak" xazinasidagi ushbu tangalar orqali Kesh viloyatining temuriylar davridagi nufuzi hamda mintaqadagi iqtisodiy jarayonlar haqida kengroq tasavvur hosil qilish mumkin. Shu bois, "Yangi Sanganak" xazinasida uchraydigan Keshda zarb qilingan tangalarini ilmiy jihatdan tahlil etish, tavsiflash, ularning

turlari va xususiyatlari, shuningdek, mintaqaning umumiy tanga ishlab chiqarish madaniyatini yoritish dolzarbdir.

Adabiyotlar sharxi. Hozirda O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan, jami 1810 dona mis tangalardan iborat “Yangi Sanganak” xazinasidagi 655 dona tangada Samarqandda (Normurodov D.P., 2024. – № 2 (4). – B. 79–92), 364 dona tangada Buxoroda (Normurodov D.P., 2024. – № 3 (5). – B. 64–73), 5 dona tanga Shosh (Toshkent)da (Normurodov D., 2025. – B. 323–327), 34 dona tanga Andijonda (Normurodov D., 2025. – № 5 (8) – B. 8–18), 12 dona tanga Hisorda zarb qilinganligi (Normurodov D., 2025. – № 5 (10) – B. 40–48), ularning XV–XVI asrda zarb qilinganligi aniqlandi. Keyingi paytda “Yangi Sanganak” xazinasidagi qolgan tangalar ustida o‘tkazilgan o‘rganish ishlari natijasida 8 dona Keshda zarb qilingan tangalarning mavjudligini aniqlashning imkoni bo‘ldi. Shuningdek, bu tangalardan ayrimlariga XVI asrda qayta zarb urilganligi va yana qayta savdo-sotiq ishlarini amalga oshirish uchun foydalanilgan. Xazinadagi ushbu Kesh tangalari ilk bor ilmiy muomalaga tortilmoqda.

Temuriylar hukmronligi davrida Keshda zarb qilingan va muomalada bo‘lgan mis tanga – fuluslar hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikalaridagi bir qancha shahar va qishloqlaridan topilgan. Ularni o‘rganishda Y.A.Davidovich, Давлатходжа Довуди, А.М.Камисhev, V.N.Nastich kabi tangashunoslarning xizmatlari katta. Jumladan, Y.A.Davidovich XV – XVI asrlarga oid Kesh tangalarini va qayta zarblarni aniqlagan (Давидович Е.А., 1983. – С. 17, 24, 101, 105). А.М.Камисhev hozirgi Qirg‘iz Respublikasi, Jalolobod viloyati Changit qishlog‘idan topilgan xazinada 1 turdagi 2 dona, Aksu tumanidan topilgan xazinada 1 turdagi 1 dona, Botken viloyati Laylak tumanidan topilgan xazinada 1 turdagi 1 dona mis tangalar XV–XVI asr boshlarida Keshda zarb qilinganligi aniqlangan (Камышев А.М., 2013. – С. 23–24, 46). Dovudxo‘ja Dovudi Tojikistonning turli tumanidan topilgan tangalar xazinasida orasidagi XV– XVI asrlarga oid Kesh tangalariga ham tavsif bergan. Jumladan, Xo‘jand shahridan topilgan Xo‘jand xazinasidagi 1 dona, Tursunzoda tumani Yaxshiobod qishlog‘idan topilgan xazinadagi (hijriy 832 va 906 yillarda zarb qilingan) 2 dona (Давлатходжа Довуди, 1998. – С. 52; Давлатходжа Довуди, 2009. – С. 274, 278, 287, 298) tangalar ular jumlasiga kiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili “Yangi Sanganak” xazinasida uchraydigan tangalar umumiy tangalar tizimining bir qismi bo‘lganligini, ular orqali mintaqadagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni o‘rganish mumkinligini ko‘rsatadi. Temuriylar davrida oid Kesh tangalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar “Yangi Sanganak” xazinasidagi Kesh tangalari bilan ilmiy taqqoslash imkonini beradi. Xususan, “Yangi Sanganak” xazinasidagi “zarb Kesh” yozuvi

tushirilgan tangalarning temuriylar davrida zarb qilingan tangalar bilan bir xazinadaliği ularning ushbu davrga tegishliliğini aytishga shubha qoldirmaydi.

Muhokama va natijalar.

I. “Yangi Sanganak” xazinasidagi Keshda zarb qilingan tangalarning turlari.

“Yangi Sanganak” mis tangalar xazinasidagi Keshda zarb qilingan tangalarning har ikkala tomoni ham zarb urish yo‘li bilan bo‘rtma ko‘rinishdagi bezak va yozuvlar tushirilgan. Ammo, birorta tangada tushirilgan bunday shakllar va yozuvlar to‘liq tushmagan. Bundan tashqari, tangalarga tushirilgan bezak va yozuvlarning bir qismi oksidlanish natijasida tekislanib ketgan. Shu sababli ularni aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Umumiy tangalardagi yozuvlarni tiklash orqali, shuningdek, tadqiqotlarda aniqlangan o‘xshashlari asosida ularning zarb qilingan yillarini aniqlash mumkin. Shuningdek, tangalarning o‘lcham va og‘irliklari ham bir-biridan oz bo‘lsa-da farq qiladi (1-jadval). Bezak va yozuvlarining o‘ziga xos ko‘rinishiga, yozuvlarining atrofi hoshiyalanishga ko‘ra ularni 2 turga ajratish mumkin. Bu tangalarning har bir turi quyidagicha tavsifga ega:

1-turi. Bu turdagi tangalar 7 dona bo‘lib, o‘rtacha hisobda ularning diametri – 23-27 mm.ni, og‘irligi esa – 4,41-4,63 gr.ni tashkil qiladi (1:1–1:7-rasmlar; 1-jadval, № 1–7).

Old tomoni: atrofi bo‘ylab aylanasiga nuqtachalar, uning ichidan halqa, halqa ichida esa atrofi novdali o‘simlik bargi shakldagi bezaklar bilan o‘ralgan, gorizonta yo‘nalishda cho‘ziq-oval ko‘rinishdagi hoshiya ichiga arab harflarida pastdan tepaga qarab “zarb/Kesh (zarb / Kesh –)” yozuvi tushirilgan. Ammo, barcha tangadagi nuqtachalar, halqa, bezak, hoshiya va yozuvlarning asosiy qismi tekislanib ketgan, bir qismi esa tangaga tushmagan.

Orqa tomoni: atrofi bo‘ylab aylanasiga nuqtachalar va halqa bilan o‘ralgan. Uning ichidan atrofi novdasimon bezak bilan o‘ralgan ovalsimon ammo, ikki yoni tashqariga burchak shaklida kengaygan hoshiya ichiga arab harflaridagi “adl shirmard ()” yozuvi tushirilgan. Qayd qilish kerakki, birorta ham tangada bezak va yozuvlar to‘liq saqlanmagan ya‘ni bir qismi tekislanib ketgan, bir qismi esa tangaga tushmagan.

“Yangi Sanganak” xazinasidagi 1-turdagi Kesh tangasiga old tomoni o‘xshash bo‘lgan mis tangalardan birini V.N.Nastich hijriy 902 (milodiy 1496-1497) yilda zarb qilinganligini aniqlagan (Настич В.Н., 2013. – С. 187). Kesh yozuvining atrofidagi hoshiyasiga o‘xshash hoshiyali tangalar hijriy 906 (milodiy 1500-1501)-yilda Samarqandda ham zarb qilingan (Давидович У.А., 1983. – С. 17. – Рис. 1:1; Давлатходжа Довуди, 2009. – С. 298. – Рис. 9:4). “Yangi Sanganak” xazinasidagi ushbu turdagi Kesh tangasi Changit xazinasidagi Kesh tangasi bilan aynan bir xil o‘xshashlikka ega. Changit xazinasidagi Kesh tangalari ham ham sanasiz

bo‘lib, uning zarb qilingan vaqti keng xronologik doirada – XV asrning so‘nggi o‘n yilligidan 1507-yilgacha deb taxmin qilinadi (Камышев А.М., 2013. – С. 24).

Yuqorida tavsiflangan davrga oid tangalarda ko‘pincha forscha “shirmard” atamasi zarbxona nomi yonida, ba‘zan esa uning o‘rnida ham uchraydi. Ammo, hozirgacha bu atamaning nimaga tangaga tushirilishiga to‘liq javob topilmagan. Odatda u shaharning epiteti sifatida, taxminiy ma‘noda «shijoatli» (so‘zma-so‘z – “sher-er”) mazmunida tushuntiriladi.

2-turi. Hijriy 901 (milodiy 1495-1496) yilda zarb qilingan. Bu turdagi tanga yagona bo‘lib, uning diametri – 22-23 mm.ni, og‘irligi esa – 4,82 gr.ni tashkil qiladi (1:8-rasm; 1-jadval, № 8).

Old tomoni: atrofi bezalgan kvadrat shakldagi hoshiya ichiga arab harflarida pastdan tepaga qarab “zarb Kesh (zarb / Kesh –)” degan yozuv tushirilgan. Hoshiyasining biri qismi tekislanib ketgan.

Orqa tomoni: tanganing cheti aylanasi bo‘ylab nuqtachalar va halqa bilan o‘ralgan. Uning ichiga arab harflarida so‘z bilan tanganing zarb qilingan (hijriy) yili yozilgan (– al-tarix sana to‘qqiz yuzi bir). Ammo, tangadagi nuqtachalar, halqa va yozuvlarning bir qismi tekislanib ketgan, bir qismi esa tangaga tushmagan

II. “Yangi Sanganak” xazinasining Keshda zarb qilingan tangalardagi qayta zarblar:

“Yangi Sanganak” xazinasidagi Keshda zarb qilingan 3 dona tangaga jami – 4 marta qayta zarb urilgan. Ulardan 2 tasi tangalarning oldi tomoniga (1:1, 1:7-rasm), 2 tasi esa tangalarning orqa tomoniga urilgan (1:3, 1:7-rasmlar). Tangalardagi qayta zarblar hoshiyalariga ko‘ra ikki – doira va gulsimon turda bo‘lib, ular quyidagicha tavsifga ega:

1-turi – doira shakldagi hoshiyali qayta zarb bo‘lib, uning ichida arab harflarida “adl /... (... /)” yozuvi tushirilgan (2:3–2:4-rasmlar). Bunday qayta zarb bitta tanganing old tomoniga (1:1-rasm), bitta tanganing orqa tomoniga zarb urib tushirilgan (1:1, 1:7-rasmlar).

2-turi – tagi tomoni yarim doira, ikki yoniga kengaygan va uchlari yuqorida uchburchaksimon birlashgan – “gulsimon” shakldabi hoshiya ichida arab harflarida “adi /... 2 (... /)” yozuv tushirilgan (2:1-rasm). Bunday qayta zarb ikkita tangaga tushirilgan bo‘lib, ulardan biri tanganing oldi tomoniga (1:7-rasm), ikkinchisi esa orqa tomoniga tushirilgan (1:3-rasm).

Yuqorida keltirilgan tangalarda tushirilgan 4 ta qayta zarbdan 1 tasidagi yozuvni aniqlashning hozircha imkoni bo‘lmadi.

Yuqorida qayd qilinganidek, “Yangi Sanganak” xazinasidagi Kesh tangalarining 1-turidagisiga zarb qilingan yili tushirilmagan. Temuriylar davri tangalarining qiyosiy tahlil ularning XV asr oxiri va XVI asrning boshlarida ishlab chiqarilganligini ko‘rsatmoqda. 2-turdagi tangada hijriy 901 (milodiy 1495-1496) yilda zarb qilinganligi tushirilgan. Tanganing bu turi kanyobligi bilan alohida ajralib turadi. Uning hoshiyasi shu paytda ishlab chiqarilgan

Samarqand, Buxoro, Toshkent tangalariniki bilan bir xil ko‘rinishda. Ma’lumki, ushbu shaharlar temuriylar davrining muhim markazi edi (Нормуродов Д.Р., 2024. – № 2. – Б. 79-92; Нормуродов Д.Р., 2024. – № 3. – Б. 64-73). Kesh tangasining ushbu shahar zarbxonalarda ishlab chiqarilgan tangalar bilan bir xildaligi Keshning ham nufuzli nuqtaligini yana bir bor tasdiqlaydi. Hozirgi Tojikiston Respublikasining Xo‘jand xazinasida, Qirg‘iz Respublikasidagi bir qancha hazinalarda, Qozog‘iston Respublikasining Yassi shahri hududidan “Yangi Sanganak” xazinasidagi 1-turdagi Kesh tangalarining uchrashi, ularning muomalada ishlarilgan geografiyasini belgilaydi. Ular temuriylar davrida Samarqand, Buxoro, Andijon, Qarshi, Hisor, Balx, Xiro, Termiz, Yassi, Shohruxiya shaharlarida zarb qilingan tangalar bilan bir xazina topilgan.


“Yangi Sanganak” xazinasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, undagi tangalar tarkibining ma’lum qismi Kesh shahrida zarb etilgan namunadan iborat. Bu tangalar misdan tayyorlangan bo‘lib, ulardagi yozuv va tasvirlar temuriylar sulolalari hokimiyatini ifoda etadi. Tangalarda hukmdor nomining tushirilmagan bo‘lsa-da, Kesh tangalari mintaqadagi pul muomalasida muhim o‘rin tutganligini aytish mumkin. Ular Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan iqtisodiy aloqalarni ta’minlashda ishtirok etgan. Tangalarning tarqalish geografiyasi Kesh hokimligining iqtisodiy va savdo aloqalari kengligini ko‘rsatadi. “Yangi Sanganak” xazinasidan chiqqan tangalar boshqa tangalar topilmasi bilan taqqoslanganda, ularning temuriylar davri siyosiy va iqtisodiy jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu xazina nafaqat Kesh tangalarining xususiyatlarini o‘rganishda, balki butun Markaziy Osiyodagi numizmatik jarayonlarni chuqur anglashda ham muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.



Xazinadagi Kesh tangalariga tushirilgan qayta zarblarda ularning urilgan yili tushirilmagan. Shu sababli ulardagi qayta zarblar qachon urilganligini aniq aytish qiyin. Tushirilgan qayta zarblardan ma’lum bo‘ladiki, “Yangi Sanganak” xazinasidagi tadqiqotga tortilgan tangalarga ikki turdagi: 1-doira va 2-gulsimon shakldagi hoshiyali qayta zarblar urilgan. 1-doira shakldagi hoshiyali qayta zarblardan Kesh, Samarqand, Hisor yozuvlilari aniqlangan (Давидович Е.А., 1983. – С. 105). Ulardan birida hijriy “906 ()” va “907 ()” raqamlari tushirilgani kuzatilgan. Kesh yozuvli qayta zarblarda xuddi “Yangi Sanganak” xazinasidagi Kesh tangasidagi kabi “2 ()” raqami kuzatilgani, arabcha “2 ()” raqamining “6 ()” bu tomonga qaratilgani qayd qilingan (Давидович Е.А., 1983. – С. 105). Bu ma’lumotlar qayta zarbning 1501-1502-yillar oralig‘ida urilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. “Yangi Sanganak” mis tangalar xazinasidagi Keshda zarb qilingan tangalar 2 turdan iborat bo‘lib, ular temuriylar davrida ishlab chiqarilgan. Bu tangalar shayboniylar davridagi pul islohotida qayta zarb urilgan va ma’lum muddat savdo-sotiqda ishlatilgan. Bu

tangalar temuriylar va shayboniylar sulolalarining tanga-pul siyosati bo'yicha ma'lumotlar doirasining kengayishiga yordam beradi. Bundan tashqari, tangalardagi bezaklar, ayniqsa, novdali o'simlik barglari bilan bezalganligi qiziqarli bo'lib, bu o'sha davrda davlatchilik boshqaruvida hukmron doiralarning o'simlik olamini qadrlaganliklaridan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur tangalar Toshkent vohasida ham muomalada bo'lgan, keyin ularga qayta zarb urilib yana muomalaga kiritilgan.

Xullas, Kesh tangalari kam sonli bo'lsa-da, temuriylar davrida keng savdo-iqtisodiy aloqalarda ishtirok etgan. Ularning tarqalish geografiyasi hokimlikning iqtisodiy faolligi hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini yaqqol aks ettiradi. "Yangi Sanganak" xazinasida nafaqat numizmatik jihatdan, balki siyosiy va iqtisodiy tarixni chuqurroq yoritishda ham qimmatligiga ega. Hijriy 901 (milodiy 1495–1496) -yillarda Kesh (hozirgi Shahrisabz) Temuriylar davlatining Movarounnahr qismi tarkibida muhim markaz bo'lgan. Bu davr siyosiy jihatdan beqaror bo'lib, 1494–1495-yillarda Samarqand taxti uchun kurash kuchaygan edi. 1495–1496-yillarda Movarounnahr hukmdori sifatida asosan Sulton Ali Mirzo hokimiyatni qo'lga kiritgan. U Samarqandni egallab, unga qarashli shaharlar, jumladan Keshni ham idora qilgan. 1495-yilda qisqa muddat Samarqandda Boysung'ur Mirzo hokimiyatni ushlab turgan, ammo tez orada Sulton Ali Mirzo ustun kelgan. 1500-yildan keyin esa mintaqada Muhammad Shayboniyxon ta'siri kuchaya boshlaydi. Bu paytdagi pul taqchilligini bartaraf etish uchun temuriylar davrida muomalaga chiqarilgan tangalarga qayta zarb urilgan va shu tangalar haqiqiy hisoblangan. "Yangi Sanganak" xazinasidagi Kesh tangalari ana shu, XV asrning oxiri – XVI asrning boshlaridagi tahlilali yillarda muomalada foydalanilgan. Ushbu topilma asosida kelgusidagi tadqiqotlarda olib borish orqali Kesh hokimligi tangashunosligini yanada atroflicha o'rganish imkoni yaratiladi. Ushbu topilmalar kelgusidagi kimyoviy tahlillardan o'tkazilsa ularning metall tarkibini aniqlashga yuchim topiladi. Bu orqali shu davrda boshqa hududlarda muomalaga kiritilgan tangalar tarkibi bilan taqqoslash mumkin bo'ladi.





№	Og‘irligi – vazni (gr)	Diametri (mm)	№	Og‘irligi – vazni (gr)	Diametri (mm)
1	4,62	24-25	5	4,59	24-26
2	4,61	23-24	6	4,60	24-26
3	4,41	24-26	7	4,48	26-27
4	4,63	25-26	8	4,82	22-23

1-jadval. Toshkent viloyati Parkent tumani “Yangi Sanganak” mahallasidan topilgan “Yangi Sanganak” xazinasidagi Kesh tangalarining o‘lchamlari (og‘irligi – vazni va diametri).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Normurodov D. “Yangi Sanganak” xazinasidagi XV asrning oxiriga oid Shosh tangalari // Temuriylar renessansi: tarix, tadqiqotlar va muammolar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 323–327.

2. Normurodov D. XV – XVI asrlarga oid “Yangi Sanganak” xazinasining Andijon tangalari // Sharq tarixi, siyosati va huquq. – Toshkent, 2025. – № 5 (08). – B. 8–18.
3. Normurodov D. Parkentdan topilgan “Yangi Sanganak” xazinasidagi temuriylar davriga oid hisor tangalari // Sharq tarixi, siyosati va huquq. – Toshkent, 2025. – № 5 (10). – B. 40-48.
4. Бурнашева Р.З. Денежное обращение в городах Южного Казахстана в XV–XVIII вв. (Историка-нумизматическое исследование). – Туркистан, 2006. – 255 стр.
5. Давидович Е. А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). – Москва: Наука, 1983. – 360 стр.
6. Давлатходжа Довуди. Древние и средневековые монеты Дангары. – Душанбе: ЭР-граф, 2014. – 120 стр.
7. Давлатходжа Довуди. Монетные клады Таджикистана – Душанбе: Дониш, 2009. – 408 стр.
8. Камышев А. М. Клады медных монет Тимуридов и Шейбанидов. – Самарканд, 2013. – 176 стр.
9. Настич В.Н. Новое о монетном чекане Кеша и Шахрисабза // Эпиграфика Востока. 2013. – № XXX. – С. 185–200.
10. Normurodov D. P. XV–XVI asrning boshlariga oid “Yangi Sanganak” xazinasidagi Buxoro tangalariga doir // Tarixiy tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – № 3 (5). – B. 64–73.
11. Normurodov D. P. XV–XVI asrning boshlariga oid “Yangi Sanganak” xazinasidagi Samarqand tangalari xususida // Tarixiy tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – № 2. – B. 79–92.